


Qoraqalpog`iston Respublikasida kichik tadbirkorlik

Yanvar-mart 2019 yil

2019 yil yanvar-martda 1280 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,1 karraga ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdo sohasida (39,8 %), sanoat tarmog'ida (19,1 %), qurilish tarmog'ida (17,6 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (8,8%), yashash va ovqatlanishda (5,4 %), tashish va saqlashda (2,3 %) tashkil etilgan.

2019 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2019 yilning yanvar-martda kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	o'Ichov birligi	2018 y.	2019 y.	(+/-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlik	10986	13106	2120
Yangi tashkil etilgan kichik korhona va mikrofirmalar	birlik	584	1280	696
YaHM	%	40,7	43,0	2,3
Sanoat	%	11,8	16,9	5,1
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	99,1	96,1	-3,0
Investitsiya	%	35,4	32,0	-3,4
Qurilish	%	87,0	88,5	1,5
Savdo	%	86,7	80,7	-6,0
Xizmatlar	%	59,5	54,2	-5,3
Yuk tashish	%	85,7	83,5	-2,2
Yuk aylanmasi	%	88,7	88,5	-0,2
Yo'lovchi tashish	%	97,2	97,3	0,1
Yo'lovchi aylanmasi	%	97,3	97,5	0,2
Eksport	%	7,0	13,4	6,4
Import	%	61,7	71,5	9,8


**Tumanlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona
va mikrofirmalar**

(birlikda)

	yanvar-mart 2018 y.	yanvar-mart 2019 y.
Qoraqalpog'iston Respublikasi	584	1280
Amudaryo	48	101
Beruniy	33	61
Qorauzak	14	32
Kegeyli	14	51
Qungirot	39	86
Qonlikul	19	40
Muynoq	10	51
Nukus	49	38
Taxiatosh	17	47
Taxtakupir	11	19
Turkul	58	137
Xujayli	21	90
Chimboy	24	52
Shumanay	18	45
Ellikqala	27	53
Nukus shahri	182	377

2019 yilda yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar tumanlar bo'yicha eng ko'p Nukus shahrida - 377 ta, Turkul tumanida - 137 ta, Amudarya tumanida - 101 ta. Xujayli tumanida - 90 ta, Qungirot tumanida - 86 ta, Beruniy tumanida - 61 ta, Ellikqala tumanida - 53 ta, Chimboy tumanida - 52 ta. Kegeyli va Muynoq tumanlarida - 51 ta, Taxiatosh tumanida - 47 ta, Shumanay tumanida - 45 ta, Qonlikul, Nukus va Qorauzak tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, 40-32 tani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni Taxtakupir tumanida - 19 tani tashkil etgan.

**2019 yil yanvar-mart holatiga yangi tashkil topgan
kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar
bo'yicha ulushi**



2019 yil yanvar-mart holatiga tumanlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Nukus sh.ga - 29,5 %, Turkkul tumani - 10,7 %, Amudaryo tumani - 7,9 %, Xujayli tumani - 7,0 %, Qungirot tumani - 6,7 %, Beruniy tumani - 4,8 %, Ellikqala tumani - 4,1 %, Chimboy tumani - 4,1 %, Muynoq va Kegeyli tumanlari - 4,0 %, Taxiatsosh tumani - 3,7 %, Shumanay tumani - 3,5 %, Qonlikul tumani - 3,1 %, Nukus tumani 3,0 %, Qorauzak tumani - 2,5 %, eng past ko'rsatkich Taxtakupir tumanida - 1,5 % ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan
kichik korxona va mikrofirmalar**

(birlikda)

	yanvar-mart 2018 y.	yanvar-mart 2019 y.
Jami	584	1280
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	152	113
Sanoat	107	244
Qurilish	99	225
Savdo	104	510
Tashish va saqlash	20	30
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	40	69
Axborot va aloqa	8	11
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	17	14
Boshqa turdag'i xizmatlar	37	64

2019 yil yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar eng ko'p savdoda 510 ta, shuningdek :

Sanoatda - 244 ta.;


Savdoda - 510 ta.;

Qurilishda - 225 ta.;

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 113 ta.;

Xizmatda - 188 ta ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar to'g'risida ma'lumot



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar savdoda - 510 ta, Sanoatda - 244 ta, Qurilishda - 225 ta, Qishloq,o'rmon va baliq xo'jaligida - 113 ta, Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda - 69 ta, Tashish va saqlashda - 30 ta, Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda - 14, Axborot va aloqada - 11 ta, ta va Boshqa turdag'i xizmatlarda - 64 tani tashkil etdi.


Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar

birlikda

	yanvar-mart 2019 y.	yanvar-mart 2018 y.	farq (+-)
Nukus shahri	377	182	195
Turtkul	137	58	79
Xujayli	90	21	69
Amudaryo	101	48	53
Qungirot	86	39	47
Muynoq	51	10	41
Kegeyli	51	14	37
Taxiatosh	47	17	30
Beruniy	61	33	28
Chimboy	52	24	28


2019 yil yanvar-martida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'sish Nukus shahrida – 195 ta., Turtkul tumanida - 79 ta., Xujayli tumanida - 69 ta, Amudaryo tumanida - 53 ta, Qungirot tumanida – 47 ta. Muynoq tumanida bu ko'rsatkich 41 ta ni tashkil etdi. Kegeyli tumanida - 37 ta., Kegayli va Chimboy tumanlarida bu ko'rsatkich 37 – 28 ta ni tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2019 yilning yanvar-martda kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni(har 1000 aholiga, birlikda) tumanlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Nukus shahrida 14,0 birlikda, Nukus tumanida 11,3 birlikda, Muynoq tumanida 7,5 birlikda, Qorauzak tumanida 7,0 birlikda, Turkul tumanida 6,6 birlikda va Qonlikul tumanida 6,2 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 5,7-4,0 birlik oralig'ida Amudaryo, Kegeyli, Qungirat, Taxiatosh, Taxtakupir, Xujayli, Shumanay, Ellikqala tumanlarida aniqlandi. Chimboy tumanida 3,7 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

2019 yilning yanvar-martida tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).




Agar, 2018 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 5,9 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 7,0 birlikka yetdi va 2018 yilga nisbatan 1,1 birlikka ko'paydi.

**Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-mart holatiga.**




Quyida, 2019 yilning yanvar-martida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 16,9 %, qurilishda - 88,5 %, investitsiyada - 32,0 %, savdoda - 80,7 %, eksportda - 13,4 %, importda - 71,5 % va xizmatlar sohasidagi - 54,2 % ulushi aniq ko'rsatilgan.

2019 yilning yanvar-martda iqtisodiy faoliyat turlarida kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi




2019 yilning yanvar-martda kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 43,0 %ni tashkil qildi (2018 yilning yanvar-martida 40,7 %).

Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining usish dinamikasi yanvar-mart holatiga, %



Kichik tadbirkorliknininig ulushi (umumiylajmiga nisbatan % da)



**2019 yil yanvar-martda kichik tadbirkorlikning
tumanlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, (%)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Qoraqalpog`iston Respublikasi	16,9	88,5	54,2	32,0
Amudaryo	42,2	99,2	96,2	80,0
Beruniy	34,4	100,0	97,0	91,1
Qorauzak	99,9	99,6	97,6	89,3
Kegeyli	21,0	93,6	96,6	77,3
Qungirot	66,3	34,1	25,8	17,3
Qonlikul	15,8	97,7	97,3	72,3
Muynoq	8,6	100,0	96,0	39,4
Nukus	99,9	100,0	97,0	57,8
Taxiatosh	11,5	55,1	86,5	3,6
Taxtakupir	99,9	97,1	96,8	89,3
Turkul	47,0	99,8	92,8	12,0
Xujayli	30,1	98,9	76,4	84,6
Chimboy	93,6	100,0	93,6	75,5
Shumanay	100,0	99,0	97,8	83,2
Ellikqala	99,6	88,9	94,9	53,7
Nukus shahri	6,2	98,1	44,7	41,5

Tumanlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Shumanay tumani (100,0%), Qorauzak, Nukus va Taxtakupir tumanlari (99,9 %), Ellikqala (99,6 %) va Chimboy (93,6 %) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda - Beruniy, Muynoq, Nukus va Chimboy (100 %), Turkul (99,8 %), Amudaryo (99,2 %), Shumanay (99,0%), Xujayli (98,9 %) tumanlari va Nukus shaxri (98,1%) tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Shumanay (97,8 %), Qorauzak (97,6 %), Qonlikul (97,3 %), Nukus (97,0%), Beruniy (97,0 %), Taxtakupir (96,8 %) va Muynoq (96,0 %) tumanlari tashkil etadi.

Investitsiyada - Beruniy (91,1 %), Qorauzak va Taxtakupir (89,3 %), Shumanay (83,2 %), Amudaryo (80,0 %), Kegeyli (77,3 %) va Ellikqala (53,7 %) tumanlari tashkil etadi.

2019 yilning yanvar–martida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan–sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 490,1 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 16,9 %);



– 425,7 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 32,0 %i) o`zlashtirildi va 2018 yilning yanvar–martiga nisbatan 97,1% ni tashkil qildi;



– 498,5 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 88,5 %) bajarildi va 2018 yilning yanvar–martiga nisbatan o`sish sur`ati 114,1 % ni tashkil qildi;



– 664,7 mlrd.so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (respublika jami xizmatlar xajmining 54,2 %), 2018 yilning yanvar–martiga nisbatan o`sish sur`ati 106,0 % ni tashkil qildi;



– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 80,7 % yoki 907,5 mlrd. so`mi (o`sish sur`ati 1,0 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

– 13,6 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 13,4 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2018 yilga nisbatan 5,0 mln. AQSh dollariga yoki 158,0 % ga ko`p;




– avtomobil transporti yuk aylanmasining 1,9 %ga (respublika jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 88,5 %i) ko`payishi ta`minlandi;




– yo`lovchi aylanmasining esa 2,5 % ga (umumiyo`lovchi aylanmasining 97,5 %) ko`payishi ta`minlandi;

Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmatlarning, jami eksport hajmidagi ulushi, %)




2019 yil yanvar-mart holatiga tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Nukus, Qorauzak, Ellikqala, Shumanay, Taxtakupir va Chimboy tumanlarida –100,0 %, Qungirot va Xujayli tumanlari –99,9 %, Turkul tumani - 98,5 %, Taxiatosh tumani - 97,3 %, Beruniy tumani –93,5 %, Qonlikul tumani - 90,0 %, Kegeyli tumani - 65,5 %, Amudaryo tumani - 64,9 eng past ko'satkichni Nukus shahrida - 1,0 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-martda tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati




Tumanlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Nukus shahri (120,2 mlrd.so'm), Ellikqala (61,8 mlrd.so'm), Qorao'zak tumani (45,8 mlrd.so'm), Chimboy (34,9 mlrd.so'm), Xujayli (33,3 mlrd.so'm), Amudaryo (32,1 mlrd.so'm), Qo'nigirot (30,8 mlrd.so'm) va To'rtko'l tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Taxtakupir (5,9 mlrd.so'm), Muynoq (7,4 mlrd.so'm) va Shumanay tumanlarida (8,1 mlrd.so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.

2019 yil yanvar-mart holatiga jami sanoat maxsulotidagi kichik tadbirkorlikning tumanlar bo'yicha ulushi, %




Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat maxsulotidagi eng yuqori ulushi Shumanay (100,0%), Nukus, Qorauzak, Taxtakupir (99,9%), El-likqala (99,6%), Chimboy (93,6%), Qungirot (66,3%), Turtkul (47,0%), Amudaryo (42,2%), Beruniy (51,0%) va Kegeyli (73,3%) tumanlarida. Muynoq (8,6%) va Nukus shahrida (6,2%) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.

2019 yil yanvar-martda tumanlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Tumanlar bo`yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Nukus shahri (197,4 mlrd.so'm), Beruniy (106,5 mlrd.so'm), Xujayli (92,7 mlrd.so'm), Turtkul (84,7 mlrd.so'm), va Qo'ngirot (66,9 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


2019 yil yanvar-martda tumanlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va sur'ati



Tumanlar bo`yicha eng ko`p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Amudaryo (141,8 mlrd.so'm), Nukus shahri (115,9 mlrd.so'm), Xo'jayli (48,4 mlrd.so'm), Beruniy (29,6 mlrd.so'm), va Qo'ngirot (22,9 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.




2019 yil yanvar- martda tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati



Tumanlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Nukus shahri (344,9 mlrd.so'm), Turtkul (41,5 mlrd.so'm) va Beruniy (40,1 mlrd.so'm), Qungirot (38,1 mlrd.so'm) va Xujayli (38,5 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019 yil I - chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 97 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi. Ulardan sanoat korxonalari - 21 (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonidan 21,6 %), qurilish - 19 (19,6 %), savdo - 34 (35,1 %), xizmatlar sohasi - 15 (15,5 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 8 (8,2 %) tashkil etdi.

**2019 yil I - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan
yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**



Tumanlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining ulushi Nukus shahrida - 35,1 %, Turtkul tumanida - 10,3 %, Xujayli tumanida - 9,3 %, Beruniy - 7,2%, Chimboy va Muynoq tumanlarida - 6,2 %, Qorauzak tumanida - 5,2%, Qungirot - 4,1%, Amudaryo, Kegeyli, Qonlikul, Nukus va Shumanay tumanlarida - 3,1 %. va Taxiatosh tumaning ulushi - 1,0 %ni tashkil qildi.


2019 yil 1-chorak bo`yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining tumanlar bo`yicha taqsimlanishi, %



Kuzatuv ma`lumlotlari tahlili, sanoat sohasida respondentlarning 28,6 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 71,4 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 38,2 % va 58,8 %, xizmatlar sohasida – 13,3 % va 80,0 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 100,0 %, qurilish – 21,1 % va 78,9 %ni tashkil qilganini ko`rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar xizmatda – 6,7 %ni, savdoda - 2,9 % ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2019 yil I-chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 57,1 % sanoat korxonalari, 26,7 % – xizmatlar, 31,6 % – qurilish, 47,1 % – savdo va 37,5 % – qishloq, o'rmon va baliq xo`jaligi tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko'rilibayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobjiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlan- tirish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: R.Sharibaev

Tel.: (861) 222-18-01, (0371)230-82-07,